

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/04.10.2024.P.72.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**TUROBOVA MAXBUBA ALISHEROVNA**

**TURMUSH QURAYOTGAN TALABALARNI**  
**OILAVIY MUNOSABATLARGA TAYYORLASHNING**  
**IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2025**

**Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on  
the Psychological Sciences**

**Turobova Maxbuba Alisherovna**

Turmush qurayotgan talabalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning  
ijtimoiy-psixologik xususiyatlari .....5

**Туробова Махбуба Алишеровна**

Социально-психологические особенности подготовки к семейным  
отношениям студентов создающих семью.....21

**Turobova Makhbuba Alisherovna**

Socio-psychological features of preparation for family relations of students  
creating a family.....41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....45

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/04.10.2024.P.72.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**TUROBOVA MAXBUBA ALISHEROVNA**

**TURMUSH QURAYOTGAN TALABALARNI**  
**OILAVIY MUNOSABATLARGA TAYYORLASHNING**  
**IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/P722 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz.) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Fayziyeva Mavluda Xudayarovna  
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:** Ulug'ova Shaxlofa Mustiddinovna  
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent  
Farfiyeva Kamola Athamjonovna  
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:** Ma'mun universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc 03/04.10.2024.P.72.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «6» *sentabr* soat 6<sup>00</sup> daqiqa daqiqa majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+0365) 221-29-14; faks: (+0365) 221-27-57; email: buxdu.rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. *721* raqam bilan ro'yxatga olingan.) Manzil: 200101, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+0365) 221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «*23*» *avgust* kuni tarqatildi.  
(2025-yil «*23*» *avgust* daqiqa *20* - raqamli reyestr bayonnomasi).



*A.M. Nazarov*  
A.M. Nazarov  
Ilmiy rahbar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

*Sh.Sh. Rustamov*  
Sh.Sh. Rustamov  
Ilmiy rahbar beruvchi ilmiy kengash kotibi,  
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

*A.A. Xuseynova*  
A.A. Xuseynova  
Ilmiy rahbar beruvchi ilmiy kengash  
shisidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari  
doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon xalqlari hayotida muhim o‘rin tutuvchi oilaviy qadriyatlar, oiladagi ijtimoiy-psixologik muhit, er-xotin munosabatlari, oilaviy nizolar hamda ajrim muammolarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma‘lumotlariga ko‘ra, ayrim mamlakatlarda ajralishlar soni oxirgi o‘n yillikda 30% ga oshgan<sup>1</sup>. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida, xususan Ispaniyada 2015-2020-yillar davomida ajralishlar soni 17% ga oshgan, bu esa oilaviy qadriyatlar va ularning saqlanishiga bo‘lgan ijtimoiy ustanovkalarda o‘zgarish yuz berayotganini ko‘rsatmoqda. Oila va nikohning ma‘naviy asoslari, oilaviy munosabatlarga psixologik tayyorlik, shuningdek, oilaviy munosabatlarda xulq-atvorni tartibga solish dolzarb muammo bo‘lmoqda. Shunday ekan, oilaviy munosabatlar, oiladagi shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy ta‘siri hamda oilaviy munosabatlarga psixologik tayyorlikni kompleks o‘rganish, ularning chuqur o‘rganilmagan jihatlarini ilmiy tadqiq qilish jiddiy ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilmiy tadqiqot markazlari va ta‘lim muassasalarida yoshlarning oilaviy munosabatlarga psixologik tayyorligi tobora dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining 47/237 Rezolyutsiyasi bilan 1993-yilda har yili 15-mayni «Xalqaro oila kuni» sifatida nishonlash e‘lon qilinganligi oilaning dunyo miqyosida beqiyos va boqiy ijtimoiy tuzilma ekanligi, oilaning barbod bo‘lishi holatlarining qayd etilish darajasi ortib borayotgan sharoitda oila institutini mustahkamlash uchun azaliy bo‘lgan masala oilaga tayyorlashda etnik stereotiplar va psixologik ustanovkalar fenomenini alohida amaliy, konstruktiv hamda yangicha yondashuv orqali yechimlarini topishni davr taqozo etmoqda. Shu bilan birga, oila qurishda shaxsning ustanovkasi, oilaviy munosabatlarga ijobiy munosabati, kommunikativ xususiyatlari, oilaviy qadriyatlarni ongli ravishda qabul qilishi hamda nikohga tayyorgarlik darajasini o‘rganishga oid tadqiqotlar ham olib borilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda yoshlarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash, oila va nikoh haqida adekvat tasavvurlarning shakllantirish dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi «Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»<sup>2</sup>gi PQ-5020-son Qaroriga muvofiq yoshlarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash markazlarini tashkil etish borasidagi ishlar yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi. Shu nuqtai nazardan, yoshlarni oilaga, eng avvalo oilaviy munosabatlarga tayyorlash masalasiga davlat miqyosida alohida e‘tibor qaratilib, oila mustahkamligini ta‘minlashga oid fundamental, amaliy hamda innovatsion tadqiqotlar olib borish, oilalarda ma‘naviy-axloqiy muhitni yaxshilashga oid tashabbuslar qo‘llab-quvvatlanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

<sup>1</sup> <https://www.who.int/>

<sup>2</sup> <https://lex.uz/ru/docs/5320584>

to'g'risida», 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida», 2022-yil 1-martdagi PF-81-son «Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2022-yil 7-martdagi PF-87-son «Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari hamda faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekiston sharoitida oilaviy munosabatlarga tayyorlik, oila mustahkamligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy ustanovkalar muammosi bo'yicha o'zbek olimlaridan F.A.Akramova, D.U.Abdullayeva, R.N.Abdullayeva, Z.B.Bilolova, M.X.Fayziyeva, D.T.Ismatova, V.M.Karimova, I.A.Jabborov, F.T.Nazarova, I.O.Xaydarov, O'.B.Shamsiyev, G'.B.Shoumarov va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan G.M.Andreeva, L.I.Afanaseva, A.I.Borisov, A.V.Berezina, L.A.Bazaleva, A.I.Blyum, I.E.Valitova, O.A.Karabanova, L.V.Gorina, S.E.Inevatkina, T.A.Koshkarova, O.V.Nekrasova, I.N.Orlova, A.A.Petrova, S.I.Xoxlov, I.A.Rusyaeva, T.T.Sorokina, O.L.Shilova va boshqalar oilaviy munosabatlar va ta'lim-tarbiya jarayonlarida psixologik omillarning ta'siri, oila mustahkamligiga ta'sir etuvchi mexanizmlar bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Xorij psixolog olimlaridan A.Akinci-Cosgun, F.Teziel-Sahin, M.J.Beaudoin, N.Poirier, N.Nader-Grosbois, U.Baranczuk, Y.Pisula va boshqalar tomonidan ona va bola o'rtasidagi munosabatlarning psixologik xususiyatlari ilmiy tadqiq etilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq A-1-173-raqamli «Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish texnologiyasi va metodikasini ishlab chiqish» mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan (2021-2023 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** turmush qurayotgan talabalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

talabalardagi oilaviy munosabatlarga tayyorlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari aniqlash;

talabalarining oilaviy munosabatlarga tayyorligining shaxs moslashuvchanlik darajasi bilan bog'liqligini tadqiq etish;

turmush qurayotgan talabalarning oilaviy munosabatlarga tayyorlashning refleksiya darajasiga bog'liqligini tadqiq qilish;

talabalarni sog'lom oilaviy munosabatlarga tayyorlashdagi muhim jihatlarni aniqlash orqali amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida turmush qurayotgan talabalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o'rganish belgilangan bo'lib, tadqiqotga Qarshi davlat universitetidan 100 nafar, Andijon davlat universitetidan 70 nafar, Termiz davlat pedagogika institutidan 60 nafar, jami 18 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan 230 nafar talaba qizlar respondent sifatida jalb etilgan.

**Tadqiqotning predmetini** turmush qurayotgan talabalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat, anketa metodlaridan, shuningdek, Y.G.Eydemiller va V.Yustiskislarning «Oiladagi xavotirlik tahlili» metodikasi, A.G.Maklakov va C.V.Chermyanina tomonidan ishlab chiqilgan ko'p omilli «Shaxs moslashuv darajasini aniqlash» metodikasi, A.V.Karpovning «Shaxsdagi refleksiya darajalarini o'rganish» metodikasi, B.S.Kruglovning «Qadriyat oriyentatsiyalari shakllanganligini aniqlash» metodikasi hamda «Turmush qurayotgan talabalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlik darajasini aniqlash» hammualliflik so'rovnomasidan foydalanildi. Olingan natijalarning ishonchlilik darajasi matematik-statistika metodlaridan Styudentning t-mezoni hamda K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali tasdiqlandi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

talaba qizlarning o'zlarini oiladagi pozitsiyasini idrok etishlari bilan bog'liq kechinmalari oilaviy munosabatlardagi ijtimoiy rollarni real holatga identifikatsiyalashda xavotirlanish, qo'rquv, aybdorlik hissini kuchli ifodalanmasligi uchun oilaga emotsional tayyorlash muhimligiga asoslanib «ayol obrazi» haqidagi ustanovkalarni sanogen tafakkur ta'sirida o'zgarishiga olib kelishi dalillangan;

talabalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning shaxs moslashuv darajasi bilan bog'liqligiga ko'ra qizlar atrofdagilarni hissiyotlarini anglash, tushunish, o'z kechinmalarini boshqarish, suhbatdoshni tinglash, o'z fikr va kechinmalarini aniq izohlash, nizolarni konstruktiv hal qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi muhimligi sababli oilaviy hayot dinamikasida xulq-atvorni nazorat qilish emotsional qadriyatlarni sintezlash asosda namoyon bo'lishi dalillangan;

talabalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda aniq jarayonlardagi situativ refleksiya muloqotdagi hamkorlikni, retrospektiv refleksiya esa oilaviy mas'uliyatni, qizlarning ideallari bilan bog'liq perspektiv refleksiya turmush qurishga emotsional tayyorlikni shakllanishiga olib kelganligi tufayli oiladagi ijtimoiy rollar haqidagi tasavvurlarni reflektiv xususiyatlar asosida konstruktivlashtirish zarurligi isbotlangan;

talaba yoshlarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda fikrlash, avtomativ g'oyalar, e'tiqod bilan bog'liq ichki va ruhiy holatlarni emotsiya ta'sirida transformatsiyalanishi tufayli «emotsional ta'sirlanish», «kognitiv faollashuv», «xulq-atvor nazorati» bilan bog'liq xususiyatlarni adaptiv ko'nikmalar asosida

kuchaytirish muhimligi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

turmush qurayotgan talabalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlashga imkon beruvchi psixodiagnostik metodikalar tizimlashtirilgan;

talabalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda «qadriyatli mazmun», «shaxslararo-emotsional mazmun», «kognitiv-xulqiy mazmun» kabi ijtimoiy-psixologik komponentlar asosiy omil sifatida aniqlangan;

turmush qurayotgan talabalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashga mo'ljallangan ijtimoiy-psixologik maxsus dastur ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot o'tkazish jarayonida keltirilgan ijtimoiy-psixologik ma'lumotlar xalqaro miqyosda o'zining ishonchli ekanligini tasdiqlagan diagnostik vositalar orqali to'plangan, o'zaro bir-birini to'ldiruvchi va samaradorlikni oshiruvchi metodlar qo'llanilgan, empirik ma'lumotlar matematik-statistik tahlil qilingan, berilgan taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilgan, shu bilan birgalikda, olingan yakuniy natijalar vakolatga ega bo'lgan tuzilmalar orqali rasmiy tasdiqlangan ma'lumotnomalar bilan isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ular talabalarning oilaviy munosabatlarga tayyorligi mazmuniy komponentlarining ochib berilganligi, shuningdek, turmush qurayotgan talabalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqidagi ilmiy tasavvurlarni oshirib, oila psixologiyasi sohasida olib borilayotgan izlanishlar ijtimoiy psixologiya fanidagi shaxslararo munosabatlar omillarining kompleks ta'siri haqidagi bilimlarni boyitadi hamda oilada sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni barqaror shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan ma'lumotlardan turmush qurishga tayyorgarlik jarayonida bo'lgan talabalarning oilaviy hayotga moslashuvini samarali tashkil etish, ularning munosabatlarga layoqatini belgilovchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash hamda ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlarida namoyon bo'ladi. Shuningdek, dissertatsiya ishi natijalari oliy ta'lim muassasalarida «Oila psixologiyasi», «Ijtimoiy psixologiya» va «Psixologik xizmat» fanlaridan o'quv qo'llanma, darsliklar tayyorlashda, psixologik lug'atlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** «Oilaviy munosabatlarga tayyorlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari»ni o'rganish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

talaba qizlarning o'zlarini oiladagi pozitsiyasini idrok etishlari bilan bog'liq kechinmalari oilaviy munosabatlardagi ijtimoiy rollarni real holatga identifikatsiyalashda xavotirlanish, qo'rquv, aybdorlik hissini kuchli ifodalansh uchun oilaga emotsional tayyorlash muhimligiga asoslanib «ayol obrazi» haqidagi ustanovkalarini sanogen tafakkur ta'sirida o'zgarishiga olib kelishi dalillanganligiga oid ma'lumotlar Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil

24-noyabrdagi PM-263-son buyrug‘i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 28-noyabrdagi PM-263-a-son ma’lumotnomasi). Natijada talabalardagi oilaviy munosabatlarga tayyorlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari aniqlashtirilgan;

talabalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning shaxs moslashuv darajasi bilan bog‘liqligiga ko‘ra qizlar atrofdegilarni hissiyotlarini anglash, tushunish, o‘z kechinmalarini boshqarish, suhbatdoshni tinglash, o‘z fikr va kechinmalarini aniq izohlash, nizolarni konstruktiv hal qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi muhimligi sababli oilaviy hayot dinamikasida xulq-atvorni nazorat qilish emotsional qadriyatlarni sintezlash asosda namoyon bo‘lishi dalillanganligiga oid ma’lumotlar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 24-noyabrdagi PM-263-son buyrug‘i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 28-noyabrdagi PM-263-a-son ma’lumotnomasi). Natijada talabalarning oilaviy munosabatlarga tayyorligining shaxs moslashuvchanlik darajasi bilan bog‘liqligi tadqiq etilgan;

talabalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda aniq jarayonlardagi situativ refleksiya muloqotdagi hamkorlikni, retrospektiv refleksiya esa oilaviy mas’uliyatni, qizlarning ideallari bilan bog‘liq perspektiv refleksiya turmush qurishga emotsional tayyorlikni shakllanishiga olib kelganligi tufayli oiladagi ijtimoiy rollar haqidagi tasavvurlarni reflektiv xususiyatlar asosida konstruktivlashtirish zarurligi isbotlanganligiga oid ma’lumotlar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 24-noyabrdagi PM-263-son buyrug‘i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 28-noyabrdagi PM-263-a-son ma’lumotnomasi). Natijada turmush qurayotgan talabalarning oilaviy munosabatlarga tayyorlashning refleksiya darajasiga bog‘liqligi tadqiq etilgan;

talaba yoshlarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda fikrlash, avtomativ g‘oyalar, e’tiqod bilan bog‘liq ichki va ruhiy holatlarni emotsiya ta’sirida transformatsiyalanishi tufayli «emotsional ta’sirlanish», «kognitiv faollashuv», «xulq-atvor nazorati» bilan bog‘liq xususiyatlarni adaptiv ko‘nikmalar asosida kuchaytirish muhimligi dalillanganligiga oid ma’lumotlar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 24-noyabrdagi PM-263-son buyrug‘i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 28-noyabrdagi PM-263-a-son ma’lumotnomasi). Natijada talabalarni sog‘lom oilaviy munosabatlarga tayyorlashdagi muhim jihatlarni aniqlash orqali amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, shundan 3 tasi Respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 142 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

«**Kirish**» qismida dissertatsiya mavzuning bugungi kundagi dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqot maqsadi va vazifalari ifodalangan, tadqiqot obyekti ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Oilaviy munosabatlarga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari**» deb nomlanib, mazkur bobda oilaviy munosabatlarga tayyorgarlik tushunchasi va uning ijtimoiy-psixologik mohiyati, talaba qizlarda oilaviy munosabatlarga tayyorgarlik shakllanishining faol davri ekanligini asoslashga qaratilgan ilmiy-nazariy masalalar o'z aksini topgan. Mazkur bobda talabalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik omillari, xususiyatlari va mexanizmlarining mazmuni yoritilgan. Shuningdek, jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda oila va oilaviy munosabatlarning funksiyalari, vazifalari, moddiy va kundalik farovonligi, oilaviy tarbiyaning mazmun-mohiyatlariga to'xtalib o'tilgan. Ayniqsa, xorij psixologlarining oilaviy munosabatlarga tayyorgarlik masalasini tadqiqotimizda atroflicha tahlil qilingan. Jumladan, ehtiyoj, faoliyat, faollik, shaxsiy tayyorgarlik, emotsional-irodaviy sohalar doirasida P.D.Sanjaeva, U.K.Diyachenko, A.Y.Apuxtina, M.R.Minigaliyev, I.Y.Korneyeva, R.N.Yudin va boshqalar tomonidan olib borilgan izlanishlari tahlil qilingan. Ta'kidlash joizki, oilaviy munosabatlarga tayyorgarlik, yoshlarning nikohga tayyorgarligi, oilaviy munosabatlarga tayyorgarligi masalalari V.S. Leonova, I.Y.Zudilina, E.M. Mavlonov, S.A. Igumnov kabilar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning tahlillari kiritilgan. Talabalik davrida oilaviy munosabatlarga tayyorgarlik masalasi xorij olimlaridan A.I.Taliyeva, O.L.Shilova, V.M.Seluyko, N.I.Lashuk, M.N.Telepov, U.A.Kuznetsov, o'zbek olimlaridan F.A.Akramova, N.X.Lutfullayeva, A.Abdullajonova kabilar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarini atroflicha yoritib berish bilan birga o'ziga xos mualliflik pozitsiyasi ham ilgari surilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Oilaviy munosabatlarga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik tahlili**» deb nomlangan bo'lib, mazkur bobda o'rganilayotgan muammoning empirik tahlili keltirilgan bo'lib, ushbu bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o'tkazish tartibi, olingan natijalarning tahlili va korrelyatsion bog'lanishlar tahlili o'z aksini topgan. Shuningdek, mazkur bobda tadqiqotimiz maqsadiga mos

tanlangan metodlarning qo'llanilishi va undan kutilayotgan natijalar to'g'risida nazariy tahlillar berilgan.

Tadqiqotimizning dastlabki bosqichida «Turmush qurayotgan talabalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash darajasini aniqlash» so'rovnomasi bo'yicha olingan natijalar tahliliga o'tamiz.

**1-jadval.**

**«Turmush qurayotgan talabalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlik darajasini aniqlash» so'rovnomasi bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahlili (n=230)**

Shkalalar nomi	O'rtacha (M)		Farqlar
	1-bosqich (n=105)	3-bosqich (n=125)	t
Oilaga emotsional tayyorlik	5,7	7,5	-2,9*
Muloqot va hamkorlik	5,6	7,7	-2,8*
Oilaviy mas'uliyat	5,5	7,3	-2,5*

Metodikaning dastlabki «oilaga emotsional tayyorlik» omili bo'yicha 3-bosqich talabalarida yuqori natija va ahamiyatli farq qayd etildi ( $t=-2,9$ ;  $p<0,05$ ). Mazkur natijalar tahliliga ko'ra, 3-bosqich talabalari orasida oilaga emotsional tayyorlik darajasi yuqori ekanligi qayd etildi. Bu talabalar oilaviy hayotga tayyorgarlik jarayonida o'z his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyatiga ega ekanliklarini ko'rsatadi. Emotsional tayyorlik oilaviy muammolarga moslashish va turli vaziyatlarda o'zini nazorat qilishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu omilning yuqori ko'rsatkichlari talabalarning oilaviy hayotdagi qiyinchiliklarga chidamli ekanligini anglatadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, emotsional tayyorlik darajasi yuqori bo'lgan talabalarning stressga nisbatan chidamliligi yuqori ekanligi kuzatildi. Shu bilan birga, ular oila a'zolarining his-tuyg'ularini tushunishga va hamdardlik ko'rsatishga intiladi. Emotsional tayyorlik oilaviy nizolarni oldini olish va ularga to'g'ri yondashishda yordam beradi. Bu ko'rsatkichlar oilaviy hayotga psixologik jihatdan tayyorlangan talaba qizlar uchun ijobiy natijalarni ta'minlash imkonini beradi.

Navbatdagi «muloqot va hamkorlik» omiliga ko'ra, 3-bosqich talabalarida ijobiy natija va ahamiyatli farq kuzatildi ( $t=-2,8$ ;  $p<0,05$ ). Olingan dastlabki natijalar tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, muloqot va hamkorlik oilaviy hayotda muhim o'rin tutadi, chunki bu ko'nikmalar oiladagi nizolarni hal qilish va o'zaro kelishuvga erishishda yordam beradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 3-bosqich talabalari ochiq muloqot va samarali hamkorlik qilish qobiliyatiga ega ekanligi, o'z fikrlarini aniq va ravshan ifoda eta olishlari dalillandi. Shuningdek, muloqot va hamkorlikdagi yuqori natijalar oilaviy hayotda o'zaro ishonch va hurmatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu ko'nikmalarni rivojlantirgan talabalar oilaviy nizolarni samarali hal qilish va kelishuvga erishishda muvaffaqiyatli bo'lishadi. Muloqotdagi ochiqlik va tushunish oiladagi hissiy barqarorlikni saqlashga yordam beradi. Talabalar oilaviy masalalarni muhokama qilish, turmush o'rtog'i bilan hamkorlikni ta'minlash orqali mustahkam oilaviy munosabatlarni shakllantirishga intiladi. Bu ko'rsatkichlar oilaviy hayotdagi ko'ngilsizliklarni kamaytirishga va oilaviy baxtni oshirishga yordam beradi.

Metodikaning so‘nggi «oilaviy mas’uliyat» omili bo‘yicha ham 3-bosqich talabalarida yuqori natija va ahamiyatli farq aniqlandi ( $t=-2,5$ ;  $p<0,05$ ). Oilaviy mas’uliyatga tayyorlik kelajakdagi turmush o‘rtog‘i va bolalar oldidagi javobgarlikni his qilishda namoyon bo‘ladi. Bu omil bo‘yicha yuqori natijalar talabalar oila byudjetini boshqarish, bolalar tarbiyasi va boshqa mas’uliyatli vazifalarni bajarishga tayyor ekanligini ko‘rsatadi. Ular oilaviy hayotda jamoaviy qarorlar qabul qilishda faol ishtirok etishadi va bu ularning kelajakdagi turmush hayotida muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi. Oilaviy mas’uliyatni anglagan talabalar o‘zlarining shaxsiy va oilaviy hayotidagi muvozanatni saqlashga intilishadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, oilaviy mas’uliyatni his qilish oilaviy munosabatlarni sog‘lom tutish va oila farovonligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu qobiliyat oilaviy hayotda bardoshlilik va o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirishga xizmat qiladi. Oilaviy mas’uliyatni anglash oila a’zolariga nisbatan g‘amxo‘rlik va e’tibor ko‘rsatish orqali oila muhitini yanada iliqroq qiladi. Natijada oilaviy hayotga mas’uliyatli yondashish orqali talabalar kelajakda baxtli va barqaror oila qurishga muvaffaqiyatli hissa qo‘shishlari mumkin.

## 2-jadval.

### «Turmush qurayotgan talabalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlik darajasini aniqlash» so‘rovnomasi hamda G.Maklakov va V.Chermyanina tomonidan ishlab chiqilgan ko‘p omilli «Shaxs moslashuv darajasini aniqlash» metodikasi omillari o‘rtasidagi aloqadorlik ( $n=230$ )

Omillar	Xulq-atvor nazorati	Kommunikativ sifatlar	Ma’naviy normativlik
Oilaga emotsional tayyorlik	0,37*	0,19	0,18
Muloqot va hamkorlik	0,15	0,36*	0,13
Oilaviy mas’uliyat	0,12	0,16	0,38*

Tadqiqot ishimizdagi dastlabki korrelyatsion tahlilga ko‘ra, «oilaga emotsional tayyorlik» omili «xulq-atvor nazorati» omili bilan korrelyatsiyaga kirishdi ( $r=0,37$ ;  $p\leq 0,05$ ). «Oilaga emotsional tayyorlik» va «xulq-atvor nazorati» o‘rtasidagi bog‘lanish oilaviy hayotga kirishayotgan talabalarning o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish va vaziyatga moslashish qobiliyatini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Emotsional tayyorlik xulq-atvorni nazorat qilish orqali o‘zini va boshqalarni yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Bu bog‘lanish turmush qurishga kirishayotgan talabalarning oilaviy hayotga mas’uliyat bilan qarashiga, muammoli vaziyatlarda esa emotsional barqarorlikni saqlashga yordam beradi. Xulq-atvor nazorati orqali emotsional reaksiya va his-tuyg‘ularni boshqarish oila ichida tinchlikni saqlashda muhimdir. Bu omillar orqali talabalarda oilada ijobiy munosabatlarni shakllantirish va turli holatlarda xulq-atvorini to‘g‘ri boshqarishga intilish rivojlantiriladi, chunki emotsional tayyorlik oilaviy hayotda baxtli va barqaror munosabatlarni yaratishga xizmat qiladi. Oila ichida his-tuyg‘ularni nazorat qilish qobiliyati talabalarning ijtimoiy va psixologik jihatdan yetuk shaxslar bo‘lib yetishishiga yordam beradi, chunki emotsional tayyorlik orqali ular oilaviy nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish va kelishuvga erishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Xulq-atvor nazorati oilada o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘z his-tuyg‘ularini

anglash va boshqalarga hurmat ko'rsatish imkonini beradi, bu esa emotsional jihatdan tayyor talabalarni ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantiradi. Emotsional tayyorlik orqali oilada o'zaro hurmat va ochiqlik saqlanadi. Mazkur qobiliyat talabalarning turmushdagi qiyinchiliklarga bardoshli bo'lishiga va o'zlarining his-tuyg'ularini to'g'ri ifoda qilishlariga yordam beradi. Bu bog'lanish oilada to'g'ri qaror qabul qilishda xulq-atvor nazoratining ahamiyatini kuchaytiradi, chunki emotsional jihatdan barqaror bo'lish orqali oila a'zolari orasidagi ijobiy munosabatlarni saqlashga erishiladi. Emotsional tayyorlik xulq-atvor nazorati bilan birga oilaviy mas'uliyatni his qilish va unga muvofiq ravishda harakat qilishga undaydi, chunki bu bog'lanish orqali talabalarda o'z-o'zini anglash va boshqalarni qadrlash qobiliyati rivojlantiriladi. Bu ko'nikma oilaviy hayotda turli holatlarda to'g'ri yo'l topish va oilani barqaror muhitda saqlashga qodir bo'lgan shaxs sifatida yetishishga yordam beradi. Bu bog'lanish orqali talabalar oilada o'z his-tuyg'ularini boshqarib, vaziyatlarga moslashish va oilaviy nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi, bu esa oilaviy hayotda muhim o'rin tutadi.

Navbatdagi «muloqot va hamkorlik» omili «kommunikativ sifatlar» omili bilan korrelyatsion bog'lanish qayd etdi ( $r=0,36$ ;  $p\leq 0,05$ ). «Kommunikativ sifatlar» va «muloqot va hamkorlik» o'rtasidagi bog'lanish oilaviy hayotda ijobiy muloqotni rivojlantirish va o'zaro ishonch asosida barqaror munosabatlar o'rnatishga yordam beradi. Kommunikativ sifatlar oilada turli muammolarni muhokama qilish va hamkorlikda yechim topish imkoniyatini beradi. Bu bog'lanish orqali talabalar oilada ochiqlik va samimiyat bilan muloqot qilish, o'zaro tushunishni oshirish va oilada mustahkam ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga imkon topadilar. Kommunikativ sifatlar oilada har bir a'zoning fikri va his-tuyg'ularini inobatga olishga undaydi, bu esa oilaviy mas'uliyatni oshiradi va har bir a'zoning oilaviy muhitda o'zini erkin va hurmatli his qilishiga yordam beradi. Bu bog'lanish oilaviy nizolarni oldini olish, kelishuvga erishish va oilaviy muhitda sog'lom muloqotni shakllantirish uchun muhim. Muloqot va hamkorlik orqali oilada birgalikda qaror qabul qilish va mas'uliyatni bo'lishish imkoniyati yaratiladi, bu esa turmushda o'zaro hurmat va ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Oilaviy hayotda kommunikativ sifatlar orqali o'z-o'zini anglash va boshqalarni qadrlash ko'nikmasi rivojlanadi. Bog'lanish oilada ochiq va samarali muloqotni ta'minlaydi. Oilada muammolarni hal qilishda kommunikativ sifatlar va hamkorlik orqali murosaga kelish imkoniyati yaratiladi, bu esa oilaviy hayotning barqaror va sog'lom muhitda o'tishiga yordam beradi. Bu bog'lanish oilaviy munosabatlarda ishonchli aloqalarni o'rnatish va har bir oila a'zosining ehtiyojlarini inobatga olish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Kommunikativ sifatlar orqali oilada ochiq muloqot va hamkorlikni mustahkamlash, oilaviy muammolarni birgalikda hal qilish va oilada barqarorlikni saqlashga intilish kuchayadi. Bu bog'lanish talabalarga oilaviy hayotda hamkorlik, ishonch va o'zaro hurmat asosida mustahkam munosabatlarni qurishga imkon beradi, chunki muloqot orqali bir-birini anglash va o'zaro qo'llab-quvvatlash qobiliyati shakllanadi.

«Oilaviy mas'uliyat» omili «ma'naviy normativlik» omili bilan ijobiy bog'lanishlar qayd etildi ( $r=0,38$ ;  $p\leq 0,05$ ). «Ma'naviy normativlik» va «oilaviy

mas'uliyat» o'rtasidagi bog'lanish talabalarning oilaviy qadriyatlar va mas'uliyatni chuqur anglashiga xizmat qiladi. Ma'naviy normativlik oilada ijobiy qadriyatlar, hurmat va e'tiborni shakllantirish uchun zarur omil hisoblanadi. Bu bog'lanish oilaviy munosabatlarda ma'naviy qadriyatlarni ustun qo'yish, har bir oila a'zosining hurmatini saqlash va ularning ehtiyojlariga moslashishga yordam beradi. Oilada ma'naviy normativlik va mas'uliyatni chuqur anglash talabalarni ijtimoiy jihatdan yetuk va axloqiy me'yorlarga amal qiluvchi shaxs sifatida shakllantiradi. Chunki, bu orqali ularning oilaga nisbatan mas'uliyatni chuqur his qilishlariga turtki bo'ladi. Bu ko'nikma oilada har bir a'zoning qadr-qimmatini anglash va ularni qo'llab-quvvatlash orqali sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirishga yordam beradi. Oilaviy mas'uliyatni his qilish va ma'naviy qadriyatlarni qadrlash orqali talabalar oilada o'z majburiyatlarini to'liq anglab, ularni bajarishga intilishadi, bu esa oilaviy hayotning barqarorligini ta'minlaydi. Ma'naviy normativlik oilaviy muhitda adolat, halollik va samimiyatni ta'minlaydi, chunki bu orqali oilada ishonchli va uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirishga erishiladi. Oilada har bir a'zo ma'naviy normativlikka asoslangan mas'uliyatni anglagan holda, o'z vazifalarini ado etishga va bir-birini qo'llab-quvvatlashga tayyor bo'ladi, bu esa oilada sog'lom va ishonchli munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Oilaviy munosabatlarda ma'naviy qadriyatlarning ustun kelishi oilada ijtimoiy birlikni kuchaytiradi va oila a'zolari orasida o'zaro hurmat va tushunishni shakllantiradi. Ma'naviy normativlik orqali oilada sog'lom psixologik muhit va barqaror munosabatlar yaratiladi. Mazkur qobiliyat talabalarni oilada adolat va hurmat asosida yashashga o'rgatadi. Bu bog'lanish orqali talabalar oilaviy hayotda o'z mas'uliyatini chuqurroq anglab, har bir qarorida ma'naviy qadriyatlarni hisobga oladi, bu esa oilani mustahkam va uyg'un qilib qurishda asosiy tamoyilga aylanadi. Shu yo'sinda, ma'naviy normativlik va oilaviy mas'uliyatning birgalikda namoyon bo'lishi oilada hamjihatlik, o'zaro tushunish va hurmatni saqlab qolishga xizmat qiladi.

### 3-jadval.

**«Turmush qurayotgan talabalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlik darajasini aniqlash» so'rovnomasi hamda «Shaxsdagi refleksiya darajalarini o'rganish» metodikasi omillari o'rtasidagi aloqadorlik (n=230)**

<b>Omillar</b>	<b>Situativ refleksiya</b>	<b>Retrospektiv refleksiya</b>	<b>Perspektiv refleksiya</b>
Oilaga emotsional tayyorlik	0,21	0,17	0,38*
Muloqot va hamkorlik	0,35*	0,11	0,19
Oilaviy mas'uliyat	0,14	0,32*	0,15

«Oilaga emotsional tayyorlik» omili «perspektiv refleksiya» omili bilan korrelyatsion bog'lanishlar kuzatildi ( $r=0,38$ ;  $p \leq 0,05$ ). Emotsional tayyorlik oilaviy hayotdagi hissiy ehtiyojlarni chuqurroq anglashga yordam beradi va istiqboldagi vaziyatlarni tahlil qilish uchun qobiliyatni rivojlantiradi. Perspektiv refleksiya orqali talabalar oilada o'z kelajakdagi mas'uliyatlarini oldindan his qilish, oilaviy maqsadlarga erishish uchun o'z hissiy holatlarini boshqarish va kerakli qarorlarni qabul qilishga o'rganadilar. Bu bog'lanish emotsional jihatdan yetuk shaxslarni shakllantirishga yordam beradi. Ular o'z his-tuyg'ularini kelajakka qaratilgan

rejalar asosida boshqarib, oilada muhim mas'uliyatlarni ado etishga intilishadi. Oilada istiqbolga qaratilgan qarorlar qabul qilish emotsional tayyorlik orqali kuchayadi. Mazkur bog'lanish talabalarda kelajakdagi oilaviy hayotni rejalashtirishda zarur bo'ladigan hissiy barqarorlikni ta'minlaydi. Emotsional tayyorlik talabalarni kelajakda yuzaga keladigan vaziyatlarga tayyorlaydi, va bu orqali oilada ishonchli munosabatlarni shakllantirish imkonini beradi. Perspektiv refleksiya orqali o'zaro ishonch va hurmat asosida istiqbolda barqaror oilaviy hayot yaratishga intilish kuchayadi, chunki bu ko'nikma orqali talabalar oilaviy vaziyatlarga emotsional moslashuvchanlik bilan qarashni o'rganadilar. Oilada kelajak uchun maqsadlar belgilash emotsional tayyorlikni rivojlantiradi va talabalarda mas'uliyatni chuqurroq anglash va o'z his-tuyg'ularini oilaviy hayotga moslashtirish ko'nikmasini shakllantiradi. Bu bog'lanish orqali talabalar oilada uzoq muddatli rejalashtirish va muammolarni oldindan anglashga tayyor bo'lib, barqaror oilaviy muhitni saqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, emotsional tayyorlik va perspektiv refleksiya oilaviy hayotda mustahkamlikni ta'minlaydi, chunki bu orqali talabalar o'z his-tuyg'ularini boshqarish va oilada uyg'unlik yaratishga muvaffaq bo'ladilar.

«Muloqot va hamkorlik» omili «situativ refleksiya» omili bilan korrelyatsiyaga kirishdi ( $r=0,36$ ;  $p\leq 0,05$ ). Situativ refleksiya talabalarni oilaviy vaziyatlarda o'z fikrlarini boshqalarning nuqtai nazaridan ko'rishga va ularga moslashishga undaydi, bu esa muloqot va hamkorlikni kuchaytiradi. Bu bog'lanish orqali talabalarda oilada kelib chiqadigan turli muammolarni muhokama qilish va birgalikda yechim topishga tayyorlik hissi paydo bo'ladi, chunki situativ refleksiya ular uchun har qanday vaziyatda muloqot qilish va moslashuvchan bo'lish imkonini beradi. O'zini boshqalar bilan teng ko'rish va ularning his-tuyg'ulariga nisbatan hurmat bilan yondashish oilada ishonch va hamjihatlik muhitini yaratadi, bu esa oilaviy masalalarni birgalikda hal qilishga yordam beradi. Situativ refleksiya muloqot va hamkorlikni rivojlantirish orqali talabalarni oilada ochiqlik va samimiyat bilan muloqot qilishga o'rgatadi. Ular turli vaziyatlarda o'z pozitsiyalarini moslashtirishi va boshqalar bilan kelishuvga erishishi mumkin. Oilaviy hayotda hamkorlik va birgalikda ishlash ko'nikmasi situativ refleksiya orqali yanada kuchayadi. Talabalar turli oilaviy vaziyatlarda muammolarni tinch yo'l bilan hal qilishga tayyor bo'ladilar. Bu bog'lanish oilada har bir a'zoning hissiy ehtiyojlarini inobatga olish, ularning fikr va nuqtai nazarini tinglash va kerakli qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi. Situativ refleksiya va muloqot orqali oilada o'zaro yordam, ko'mak va qo'llab-quvvatlash muhitini yaratish imkoniyati paydo bo'ladi, bu esa oilaviy munosabatlarda barqarorlik va sog'lom ijtimoiy aloqalarni saqlashga xizmat qiladi. Bu bog'lanish orqali talabalar oilada ochiq va ishonchli muloqot o'rnatishga intilishadi va har qanday vaziyatda muloqotni rivojlantirish, bir-birini tinglash va tushunishga o'rganadilar, bu esa oilaviy hayotni mustahkamlaydi. Situativ refleksiya orqali talabalar oilada ijobiy va sog'lom aloqalar o'rnatib, turmushda bir-birini tushunish va qo'llab-quvvatlash qobiliyatiga ega bo'ladilar.

«Oilaviy mas'uliyat» omili «retrospektiv refleksiya» omili bilan ijobiy bog'lanishlar aniqlandi ( $r=0,38$ ;  $p\leq 0,05$ ). Retrospektiv refleksiya talabalarga oilada o'z xatti-harakatlarini qayta ko'rib chiqish va ulardan saboq olish qobiliyatini

rivojlantiradi, bu esa ularning oilaviy mas'uliyatni yanada chuqurroq anglashlariga yordam beradi. O'tmishdagi harakatlaridan xulosa chiqarish va ularni tahlil qilish orqali talabalar oilada qilingan xatolarni takrorlamaslikka, o'zlarini tuzatishga va yaxshi munosabatlarni shakllantirishga intilishadi. Bu bog'lanish orqali talabalarda oilada o'z majburiyatlarini chuqurroq anglash, oilaviy masalalarda mas'uliyat bilan qaror qabul qilish va kelajakdagi xatolardan saqlanish qobiliyati shakllanadi. Oilaviy mas'uliyatni his qilish retrospektiv refleksiya orqali yanada kuchayadi, chunki bu ko'nikma talabalarga o'z xatti-harakatlarini o'tmishdagi tajribalardan kelib chiqqan holda boshqarish imkonini beradi. Retrospektiv refleksiya orqali talabalarda oilaviy hayotga hurmat, adolat va mas'uliyat bilan qarash hisi shakllanadi, bu esa ular uchun oilada uzoq muddatli sog'lom munosabatlarni yaratishda yordam beradi. Bu bog'lanish oilaviy masalalarni tahlil qilish va har bir qarorni ehtiyotkorlik bilan qabul qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Retrospektiv refleksiya orqali talabalar oilaviy hayotda mas'uliyatni chuqurroq anglashga o'rganadilar. Retrospektiv refleksiya orqali talabalar o'tmishda qilingan xatolarni tushunish va ularni takrorlamaslik uchun zarur xatti-harakatlar tizimini shakllantiradi, bu esa oilaviy barqarorlik va sog'lom muhit yaratishga hissa qo'shadi. Oilaviy mas'uliyatni retrospektiv yondashuv bilan birga anglash talabalarni o'z majburiyatlarini to'liq ado etish va oilaviy hayotda o'zlarini ijobiy jihatdan ko'rsatishga undaydi. Shu tarzda, retrospektiv refleksiya va oilaviy mas'uliyat bog'lanishi talabalarga o'z oilalarini barqaror va mustahkam qilib qurishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular o'z tajribalari asosida oilaviy munosabatlarni rivojlantirishga intilishadi.

